



**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYAT SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2021- YIL YANVAR-NOYABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7 126,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 111,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,3 % ga elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning – 20,7 % ga oʻsishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 103,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda


Tumanlar nomi	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	FHI, %
G‘allaorol tumani	15 878,0	20 785,3	128,3
Forish tumani	5 174,6	7 006,7	132,8
Sharof Rashidov tumani	32 776,6	22 200,6	66,4
Zomin tumani	24 057,1	15 385,1	62,7
Jizzax shahri	14 954,2	23 544,6	154,4
Zafarobod tumani	7 634,2	11 291,4	145,0
Baxmal tumani	1 754,1	2 412,7	134,9

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. soʻm

Yanvar - noyabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6625,6 mlrd.soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,0 % ini tashkil etdi.


2020-yil
yanvar-noyabr

91,1
%

2021-yil
yanvar-noyabr

93,0
%

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – 3,8 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 15,6 % (4,4 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 24,8 % (21,6 %) va quyi texnologiyalisi – 52,5 % (61,4 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 27,7 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 3,2 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 110,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,7 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 120,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,2 % (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 133,5 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	23 154,0	43 870,0	20 716
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	60 020,0	57 699,1	-2 320,9
Paxta chigiti, t.	37 960,0	67 757,0	29 797
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	6 678,3	4 025,0	-2 653,3
Paxta linti, t.	2 027,0	3 992,5	1 965,5
Trikotaj polotnolar, t.	1 867,0	2 236,0	369,0

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 71,0 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 3,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 110,6 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 132,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,4 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1305,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1067,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 166,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 74,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 20,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 20,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2330,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 98,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 %, fizik hajm indeksi 116,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 365,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 153,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 121,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 78,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi 113,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 340,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 14,8 % ga pasaygan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi 133,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 299,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 312,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ini) tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,7 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	218 670,0	239 179,3	20 509,3
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	7,1	16,6	9,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	58 356,3	73 634,5	15 278,2

Yanvar - noyabr

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-noyabr	2021-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	32 388,6	66 635,3	34 246,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	18 497,6	18 320,5	-177,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 14,2 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 26,5 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3061,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil
yanvar-noyabr

31,1%

2021-yil
yanvar-noyabr

26,6%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil
yanvar-noyabr

68,9%

2021-yil
yanvar-noyabr



73,4%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 26,6 % (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 31,1 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 27,2 % ni va Zarbdor tumani 10,1 % ni, Do'stlik tumani 13,8 % ni hamda Paxtakor tumani 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahar (127,8 %), Zafarobod tumanida (124,6 %), Paxtakor tumanida (112,5 %) hamda Arnasoy tumanida (111,7 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,9 % shuningdek, G'allaorol tumani 19,6 %, Paxtakor tumani 6,9 % ni, hamda Forish tumani 6,6 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 29,6 % shuningdek, G'allaorol tumani 24,2 %, Forish tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

1 412,0 mlrd. so'm


2019- yil yanvar- noyabr

1 564,4 mlrd. so'm



2020- yil yanvar- noyabr

2 247,2 mlrd. so'm

2021- yil yanvar- noyabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 27,2 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 13,8 % ni, Zarbdor tumani esa 10,1 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 32,5 % ni, shuningdek, Zafarobod tumani 15,0 % ni, G'allaorol tumani esa 10,8 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2019- yil

4 293,1 mlrd. so'm

2020- yil

5 060,6 mlrd. so'm

2021- yil

7 126,6 mlrd. so'm



2019- yil

104,9 %

2020- yil

107,5 %

2021- yil

111,2 %

Jizzax viloyati

111,2

7 126,6

Jizzax shahar

103,6

2 315,6

Arnasoy

105,1

238,8

Baxmal

110,7

94,4

G'allaorol

119,3

768,8

Sharof Rashidov

108,2

328,0

Do'stlik

107,6

763,5

Zomin

102,1

292,4

Zarbdor

98,8

294,1

Zafarobod

136,7

1072,4

Mirzacho'l

97,1

150,5

Paxtakor

107,7

461,6

Forish

109,8

294,9

Yangiobod

57,0



51,6

FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (12 708,3 ming so'm), Zafarobod (21 064,8 so'm) tumanida hamda Do'stlik (11 403,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 009,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 151,7 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 4 861,2 ming so'mni, Arnasoy tumanida – 4 343,6 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 3 404,1 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3626 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1105 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,5 % i) Jizzax shahriga, 668 tasi (18,4 %) Sharof Rashidov tumaniga, 353 tasi (9,7 %) G'allaorol tumaniga, 272 tasi (7,5 %) Zomin tumaniga va 179 tasi (4,9 %) Forish tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2019- yil
725 dona

2020- yil
740 dona

2021- yil
800 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2019- yil
2 776 dona

2020- yil
3 427 dona

2021- yil
3 626 dona